


# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

**2023-YIL — INSONGA E’TIBOR VA SIFATLI TA’LIM YILI**

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2023-yil 7-sentabr, № 187 (8530) Payshanba Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


## BUXORO VILOYATI BO‘YICHA BANDLIK DASTURI KO‘RIB CHIQILDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev Buxoro viloyatida aholi bandligini ta’minlashga doir takliflar taqdimoti bilan tanishdi.**

Davlatimiz rahbari viloyatlarga tashriflari chog‘ ida birinchi galda ishsizlik masalasiga e’tibor qaratib, uni kamaytirishni asosiy vazifa qilib qo‘yadi. Bu borada barcha hududlarda manzilli dasturlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda Buxoro viloyatida 1 milliondan ziyod mehnatga layoqatli aholi bo‘lib, shundan 76 ming nafari ishsiz. Har yili mehnat bozoriga 37 mingga yaqin yoshlar kirib kelmoqda. Bularning hammasini inobatga olib, Buxoro viloyatini 2023 — 2025-yillarda aholisi to‘liq ish bilan ta’minlangan hududga aylantirish maqsad qilingan.

Buning uchun imkoniyatlar yetarli. Masalan, paxta-to‘qimachilik va g‘ allachilik klasterlari. Buxoroda 11 ta shunday tashkilot bo‘lib, ular tomonidan sanoat va qishloq xo‘jaligida 94 mingta, shu jumladan, kasanachilikni rivojlantirish orqali 19 mingta ish o‘rni ochilishi mo‘ljallanmoqda.

Mahallalarda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik, chorvachilik, savdo va xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida 57 ta mikromarkaz, ishsizlik yuqori bo‘lgan 98 ta mahallada kichik tikuv sexlarini tashkil etish ko‘zda tutilmoqda.

Joriy yilda 15 ming gektar ekin yerlarini qayta foydalanishga kiritish imkoniyati ham bor. Bu yerlar yangi dehqon xo‘jaliklari tashkil etish uchun aholiga ochiq elektron tanlov asosida taqdim etiladi. Shuningdek, davlat aktivlarini auksionga chiqarish, ularning negizida ish o‘rinlarini ko‘paytirish bo‘yicha takliflar bildirildi.

Umuman, ushbu chora-tadbirlar natijasida joriy yilda 250 mingta ish o‘rni yaratilishi qayd etildi.

Taqdimotda Hindiston bilan hamkorlikda Qorako‘l tumanida IT-klaster tashkil etish loyihasi haqida ham axborot berildi.

Davlatimiz rahbari mazkur takliflarni ma’qullab, qo‘shimcha topshiriqlar berdi.

**O‘zA.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

FARMONI

## SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlarni izchil davom ettirish, jumladan, boshqaruvni takomillashtirish, sohani rivojlantirishning kelgusi istiqbollarini belgilash, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish orqali sifatli tibbiy xizmatlar ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish maqsadida:

1. Aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirish markazi **Salomatlik va strategik rivojlanish instituti** (keyingi o‘rinlarda — Institut) etib qayta tashkil qilinsin.

2. Quyidagilar Institutning asosiy vazifalari etib belgilansin:

**sog‘lom turmush tarzini** shakllantirish, yuqumli bo‘lmagan kasalliklarga **qarshi kurashish hamda oldini olish** bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

sog‘lom turmush tarzini **targ‘ib qilish, zararli odatlarga qarshi kurashish**, aholining barqaror **tibbiy madaniyatini** shakllantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

ilg‘or va maqbul xorijiy tajriba asosida sog‘liqni saqlash tizimi faoliyatining **ustuvor yo‘nalishlari, o‘rta muddatli** va **uzoq muddatli rivojlanish ssenariylari va strategiyalari** bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish;

**tibbiy statistikani shakllantirish** va **yuritish**, statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirishda xalqaro standartlar va metodikalarni joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, tibbiyot sohasidagi statistik ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash borasidagi ishlarni takomillashtirish.

Belgilansinki, 2024-yil 1-yanvardan Institut va uning hududiy bo‘linmalari xodimlari mehnatga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish shartlariga ko‘ra, tegishli ravishda, **Sog‘liqni saqlash vazirligi va uning hududiy boshqaruv organlari xodimlariga tenglashtiriladi**.

3. Sog‘liqni saqlash vazirligi Institut bilan birgalikda **ikki oy muddatda 2024 — 2026-yillarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, to‘g‘ri ovqatlanishni tizimli targ‘ib qilish va ommalashtirish dasturini** ishlab chiqsin va unda, jumladan, quyidagilarni nazarda tutsin:

sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan yiliga **25 tagacha** promo-roliklar, dastur va teleko‘rsatuvlar tayyorlash;

uyali telefon foydalanuvchilariga kasalliklar profilaktikasi va sog‘lom turmush tarzi asoslari bo‘yicha **har kuni** qisqa xabarlar (SMS) yuborish;

jurnalistlar va boshqa matbuot vakillari o‘rtasida har yili **“Sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha yilning eng yaxshi targ‘ibotchisi”** tanlovini o‘tkazish;

bozorlar, samolyot, poyezd, avtobus, metro, supermarketlar va fuqarolar ommaviy yig‘iladigan boshqa joylarda sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha **roliklar** namoyish qilish, **radiomaslahatlar** taqdim qilish va **bukletlar** tarqatishni ta’minlash.

4. Sog‘liqni saqlash vazirligi xalqaro tashkilotlar va xorijiy konsalting kompaniyalarini jalb qilgan holda **2023-yil yakuniga qadar** ilg‘or xorijiy tajriba asosida quyidagilarga asosiy e’tiborni qaratgan **holda “Aholi salomatligi – 2030” milliy strategiyasi** ishlab chiqilishini ta’minlasin:

aholini maksimal qamrab olgan holda **birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatini** unga yanada yaqinlashtirish;

fuqarolarning **sog‘lom turmush tarzini**, sog‘lom ovqatlanishini va jismoniy faolligini qo‘llab-quvvatlash, ularni aholi orasida **har tomonlama targ‘ib qilish**;

**onalik va bolalikni** muhofaza qilish, aholining bu boradagi ehtiyojlarini qondirish;

**ixtisoslashgan tibbiy yordam** ko‘lamini kengaytirish;

sog‘liqni saqlash tizimini **to‘liq raqamlashtirish**, qog‘ozbozlikka, asossiz byurokratiyaga va navbatlarga chek qo‘yish, aholiga tibbiyot muassasalariga murojaat qilganida qulayliklar yaratish;

(Davomi 2-betda).

O‘zbekiston Respublikasining

QONUNI

## O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kripto-aktivlar aylanmasi sohasida litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari tizimini takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 23-mayda qabul qilingan
Senat tomonidan 2023-yil 4-avgustda ma’qullangan

Keyingi yillarda mamlakatimizda kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, qonunchilik hujjatlari bilan O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi kripto-aktivlar aylanmasi sohasida litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish tartibini, mazkur sohada faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziyalar berganlik uchun davlat boji miqdorlarini va uni to‘lash tartibini belgilovchi, kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha vakolatli organ etib belgilangan.

Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyat turlari sifatida mayning va kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyati belgilangan hamda faoliyatning mazkur turlari litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari asosida amalga oshirilishi qayd etilgan. Xizmatlar provayderlari turlari sifatida kripto-birja, mayning-pul, kripto-depozitariy va kripto-do‘kon belgilangan.

Shu munosabat bilan “Davlat boji to‘g‘risida”gi va “Lisenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga litsenziyalanadigan faoliyatning yangi turlari va kichik turlari (kripto-birja, mayning-pul, kripto-depozitariy va kripto-do‘kon) hamda ruxsat berish xususiyatiga ega hujjat asosida amalga oshiriladigan mayning faoliyati belgilanishini, O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining kripto-aktivlar aylanmasi sohasida litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish masalalariga doir vakolatlari mustahkamlanishini nazarda tutuvchi qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Ushbu Qonun kripto-aktivlar aylanmasi sohasini yana-da rivojlantirishga hamda mazkur sohada litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**1-modda.** O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvarda qabul qilingan **“Davlat boji to‘g‘risida”**gi O‘RQ–600-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 1, 1-modda, № 3, 201-modda, № 5, 298-modda, № 10, 593-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 13-modda, 4-songa ilova, № 7, 661-modda, № 8, 800, 803-moddalar, № 10, 968-modda; 2022-yil, № 2, 76-modda, № 3, 214, 216-moddalar, № 4, 340-modda, № 5, 463, 464, 467-moddalar, № 12, 1186-modda; 2023-yil, № 2, 103-modda, № 3, 186-modda, № 4, 265, 269-moddalar) **24-moddasi** quyidagi mazmundagi **uchinchi qism** bilan to‘ldirilsin:

“Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olayotgan yuridik shaxslar davlat bojini O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan belgilanadigan miqdorda va tartibda to‘laydi”.

(Davomi 2-betda).

**Muloqot**

O‘zbekiston — Belarus:

## HAMKORLIKNING BUGUNGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI

*Avval xabar berilganidek, Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi O‘zbekiston delegatsiyasining Belarus Respublikasiga rasmiy tashrifi davomida bir qator uchrashuvlar o‘tkazildi.*

Xususan, kecha parlament delegatsiyasi M. Tank nomidagi Belarus davlat pedagogika universitetida ushbu mamlakat ta’lim vaziri A. Ivanets va oliy ta’lim muassasasi rektori A. Juk bilan muloqot qildi.

Suhbat davomida ikki mamlakat o‘rtasida ta’lim yo‘nalishida hamkorlikning bugungi holati va istiqbollariga e’tibor qaratildi.

Jumladan, pedagogik kadrlarni tayyorlash, ta’lim jarayonlarini tashkil etish metodologiyasini ishlab chiqish, ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish, inklyuziv ta’limni rivojlantirish masalalari yuzasidan fikr almashildi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari bilan talabalar va professorlar akademik almashinuvi o‘zaro aloqalarning samarali usullaridan biri bo‘lishi ta’kidlandi.

BDPU rektori A. Juk Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti bilan yaqin aloqalar o‘rnatish niyatida ekanligini ma’lum qildi.

➡ 2

## O‘ZBEKISTON XALQARO MAYDONDA MUSTAHKAM MAVQE, MUNOSIB HURMAT VA E’TIBORGA EGA

*Shu kunlarda O‘zbekistonning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarida Vatanimiz mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligi munosabati bilan bayram tadbirlari o‘tkazilyapti. Ularda Prezident Shavkat Mirziyoyevning 31-avgust kuni Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan tantanali marosimdagi nutqining mazmun-mohiyati va ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilmoqda.*

**Biz va jahon**

Jumadan, O‘zbekistonning Turkiyadagi elchixonasi tomonidan eng ulug‘, eng aziz bayram — Vatanimiz mustaqillik kuni munosabati bilan **Anqara**da bayram kechasi tashkil etildi.

Tadbirda Turkiya ichki ishlar vaziri maslahatchisi Xatije Atan, Adolat va taraqqiyot partiyasining Anqara viloyati rahbari o‘rinbosari Mustafa Erdog‘an qatnashdi.

So‘zga chiqqanlar tadbir ishtirokchilarini O‘zbekiston mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligi bilan tabrikladi. Mamlakatimiz mustaqillik yillarida barcha sohada va xalqaro maydonda ulkan taraqqiyotga erishgani ta’kidlandi. Bugungi kunda mamlakat rahbariyati tomonidan olib borilayotgan oqilona ichki va tashqi siyosat natijasida O‘zbekistonning o‘ziga xos imiji shakllangani e’tirof etildi.

O‘zbekistonning Turkiyadagi elchixonasi, shuningdek, Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOY hamda Anqara shahri Kechiyoren tumani hokimligi bilan hamkorlikda Mustaqillik kuniga bag‘ishlab o‘zbek milliy amaliy san’ati ko‘rgazmasi tashkil qilindi.

Hukmron Adolat va taraqqiyot partiyasi deputati Zeynep Yildiz ko‘rgazmaning ochilish marosimidagi nutqida mehmonlar e’tiborini turkiy davlatlar o‘rtasidagi



madaniy-gumanitar hamkorlikni mustahkamlash muhimligiga qaratdi, Turkiya va O‘zbekiston madaniyatlarining o‘xshashligi va uyg‘unligini alohida urg‘uladi.

➡ 4

Sud-huquq tizimi:

## OCHIQLIK VA OSHKORALIK – BOSH MEZON

*Jamiyat hayotining hozirgi globallashuv, tezkor jarayoni sohalarda ochiqlik, oshkoralik, demokratik tamoyillarga amal qilgan holda izchil islohotlar olib borish, aholi manfaatlarini ta’minlash, ularning huquq va erkinliklarini kafolatlashda yangicha yondashuvlar joriy etishni talab qilmoqda. Ayniqsa, bu axborot almashinuvi jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, fuqarolarga xolis axborot yetkazish davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasida ishonchlilikni yanada mustahkamlaydi.*

**Mulohaza**

Shu o‘rinda aytish joizki, so‘nggi yillarda sud-huquq tizimida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Albatta, bunda eng avvalo, O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, shu bilan birga, yurtimizda so‘nggi yillarda qabul qilingan qonunlar muhim dasturilamal bo‘lyapti. Chunonchi, birgina “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunda mamlakatimizda sud tizimi ochiqligi va uning kafolatlari aniq ifodalandi.

Binobarin, ushbu hujjatga ko‘ra qonunchilikda nazarda tutilgan holatlardan tashqari, barcha sudlarda ishlar ochiq ko‘rilishi, sud majlisi zalida hozir bo‘lgan shaxslar, ommaviy axborot vositalari vakillari qonunda belgilangan tartibda fotosuratga olishi, video va audio yozuvni amalga oshirishi mumkinligi belgilandi. Bu, o‘z navbatida, odil sudlovning ommaviy axborot vositalari orqali aholi huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, inson huquqlari buzilishi bo‘yicha ayrim og‘riqli masalalarni bartaraf etishda muhim o‘rin tutmoqda.

➡ 3

**Xalqaro konferensiya oldidan**



*Shu yil 7-8-sentabr kunlari Samarqandda oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha xalqaro konferensiya o‘tkaziladi. Ushbu nufuzli anjuman kun tartibida dunyoda “Nol ochlik” maqsadiga erishish, ishtirokchi mamlakatlar o‘rtasida oziq-ovqat yetkazib berish uchun ekspress dahlizlarni ochish kabi masalalar bor.*

*Xalqaro konferensiya O‘zbekiston hukumati tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) texnik ko‘magida o‘tkaziladi.*




## OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI — GLOBAL MASALA

Tadbirda 30 dan ziyod mamlakatlardan vazirlar va diplomatlar, shuningdek, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Jahon banki, Islom oziq-ovqat xavfsizligi tashkiloti, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari, ilmiy tashkilotlar vakillari qatnashadi.

Ayonki, oziq-ovqat xavfsizligi keyingi 3-4-yildan beri xalqaro va mintaqaviy doiralarda eng ko‘p tilga olinayotgan iboralardan biriga aylandi. Iqlim o‘zgarishi, dunyodagi keskin qarama-qarshiliklar, qurg‘oqchilik, yerlarning degradatsiyaga uchrashi va boshqa omillar tufayli sohada tanglik yuzaga kelmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev mahalliy va xalqaro darajadagi anjuman hamda sammitlarda ushbu global muammo va uning yechimiga doir ilg‘or tashabbuslarni ilgari surib keladi. Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand sammitida O‘zbekiston Prezidenti ushbu masalaga alohida e’tibor qaratib, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning umumiy tamoyillari va yondashuvlarini ishlab chiqishni taklif qildi.

“Mamlakatlarimiz qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining yirik ishlab chiqaruvchilari, eksport va import qiluvchilari bo‘lishiga qaramasdan, ShHT doirasida oziq-ovqat xavfsizligi masalalari bo‘yicha hali jiddiy hamjihatlikni yo‘lga qo‘ya olmadik, — dedi Shavkat Mirziyoyev. — Davlatlarimiz salohiyati ichki bozorlarni boshoqli ekinlar, chorvachilik va meva-sabzavot mahsulotlari, asosiy oziq-ovqat turlari hamda zarur o‘g‘itlar bilan muntazam ta’minlash imkonini beradi. Bundan tashqari, biz ushbu muammoni global darajada hal qilishga hissa qo‘shishimiz kerak”.

### Dolzarb tashabbuslar, istiqbolli takliflar

Global muammoga aylanib borayotgan oziq-ovqat tizimidagi hayotiy masalalarni keng muhokama qilish maqsadida Prezidentimiz tomonidan 2023-yilda oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha xalqaro konferensiya o‘tkazish taklif etildi. Bu — o‘z vaqtida va muhim ahamiyatga molik tashabbus, desak, ayni haqiqat.

➡ 3

O‘zbekiston Respublikasining
QONUNI

# O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kripto-aktivlar aylanmasi sohasida litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari tizimini takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

**2-modda.** O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyulda qabul qilingan **“Lisenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”**gi O‘RQ–701-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, № 7, 661-modda; 2022-yil, № 4, 340-modda, № 5, 465-modda; 2023-yil, № 2, 103-modda, № 3, 185-modda) quyidagi qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) **1-modda** quyidagi mazmundagi **to‘rtinchi qism** bilan to‘ldirilsin:

“Ushbu Qonunning 1 va 2-ilovalariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining vakolatlariga taalluqli bo‘lgan litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari tegishli faoliyat sohalaridagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi”;

2) **1-ilovaning 7-pozitsiyasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

| | | | |
|---|---|---|---|
| « 7. | Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya | Kripto-birja faoliyati; | O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi |
| | | mayning-pul faoliyati; | |
| | | kripto-depozitariy faoliyati; | |
| | | kripto-do‘kon faoliyati. | »; |

3) **2-ilova** quyidagi mazmundagi **122-pozitsiya** bilan to‘ldirilsin:

| | | | |
|---|---|---|---|
| « 122. | Mayning faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnoma | Mayning faoliyatini amalga oshirish. | O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi »; |

4) **4-ilova:**

**I bo‘limining 6-pozitsiyasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

| | | |
|---|---|---|
| « 6. | Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya | 300 »; |

**II bo‘limi** quyidagi mazmundagi **112-pozitsiya** bilan to‘ldirilsin:

| | | |
|---|---|---|
| « 112. | Mayning faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnoma | 150 ». |

**3-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

**4-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

**5-modda.** Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti** **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2023-yil 6-sentabr
№ O‘RQ—866

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

# SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

zamonaviy va samarali **boshqaruv usullarini** joriy qilish va **tibbiy xizmatlar sifatini** oshirish;

**kadrlar salohiyatini** oshirish, tibbiy **ta’lim** va **ilm-fanni** rivojlantirish;

**xususiy sektorni** rivojlantirish va **investitsiyalarni jalb qilish** hamda **yirik davlat-xususiy sheriklik** loyihalarini amalga oshirish;

tibbiyot muassasalarining **moddiy-texnika bazasini mustahkamlash**;

**farmatsevtika tarmog‘ini** samarali tartibga solish.

5. Quyidagilar Sog‘liqni saqlash vazirligi **tuzilmasiga o‘tkazilsin**:

**Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi**;

**2024-yil 1-yanvardan Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi.**

6. Belgilansinki:

mazkur Farmonning 5-bandida ko‘rsatilgan muassasalar Sog‘liqni saqlash vazirligi tuzilmasiga **mustaqil yuridik shaxs maqomi** hamda ular faoliyatini **moliyalashtirishning amaldagi manbalari** va **tartibini** saqlab qolgan holda o‘tkaziladi;

Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi **farmatsevtika sanoati** barqaror rivojlanishi uchun **javobgarlikni to‘liq** zimmasiga oladi;

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasining kuzatuv kengashi tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi doirasida tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun jalb qilinadigan yetkazib beruvchilar (davlat va nodavlat)ni, xarid qilinadigan tibbiy yordamlar hajmini **mustaqil belgilaydi** va o‘z byudjetini shakllantiradi;

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi **2027-yil 1-yanvardan** Sog‘liqni saqlash vazirligi tarkibidan chiqadi va **mustaqil jamg‘arma** sifatida faoliyat yuritadi;

Davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga tashxis qo‘yish va davolash bo‘yicha tasdiqlangan standartlarga muvofiq tibbiy xizmatlarning bazaviy narxlari **Sog‘liqni saqlash vazirligi** tomonidan **Iqtisodiyot va moliya vazirligi** hamda **Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi** bilan kelishgan holda belgilanadi;

**sog‘liqni saqlash vaziri va Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ijrochi direktori 2026-yilning yakuniga qadar** tibbiy sug‘urtaning respublika bo‘ylab **to‘liq joriy etilishi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi**.

7. **2024-yil 1-yanvardan** Sog‘liqni saqlash vazirligi huzurida **quyidagilarni birlashtirish orqali yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi** (keyingi o‘rinlarda — Tibbiyotni rivojlantirish jamg‘armasi) tashkil etilsin:

Onkogematologik va davolash qiyin bo‘lgan kasalliklarga chalingan bemorlarni sog‘lomlashtirishga ko‘maklashish jamg‘armasi;

Tez tibbiy yordamni rivojlantirish jamg‘armasi;

Iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qo‘llab-quvvatlash hamda tibbiyot muassasalariga jalb qilish jamg‘armasi;

Spinal mushak atrofiyasi tashxisi qo‘yilgan bemor bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi.

8. Quyidagilar 2024-yil 1-yanvardan Tibbiyotni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini **shakllantirish manbalari** etib belgilansin:

Davlat byudjetidan har yili ajratiladigan **350 milliard so‘m** miqdoridagi mablag‘lar;

**spinal mushak atrofiyasi tashxisi qo‘yilgan bolalarga** tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish va **dori** vositalarini bepul yetkazib berish xarajatlari uchun Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar;

iqtidorli va malakali **tibbiyot mutaxassislarini** qo‘llab-quvvatlash hamda tibbiyot muassasalariga jalb qilish uchun Davlat byudjetidan har yili ajratiladigan **50 milliard** so‘m miqdoridagi mablag‘lar;

Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi muassasalar va tashkilotlarning **bo‘sh turgan binolari, ko‘chmas mulk obyektlari va yer uchastkalarini** ommaviy savdolar (auksion)da sotishdan tushadigan mablag‘larning respublika byudjetiga o‘tkaziladigan **50 foizi**;

Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi muassasa va tashkilotlarning mol-mulkini ijaraga berishdan tushadigan **tushumlarning**, Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining operasion xarajatlarini chegirib tashlagan holda, mahalliy byudjetlarga o‘tkaziladigan **100 foizi**;

xalqaro moliya institutlarining, hukumat va nohukumat tashkilotlarning **grantlari va texnik ko‘mak mablag‘lari**;

G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi tomonidan Tibbiyotni rivojlantirish jamg‘armasining vaqtincha bo‘sh mablag‘larini **tijorat banklari depozitlariga** joylashtirishdan olinadigan daromadlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning **homiylik xayriyalari**;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan **boshqa manbalar**.

9. Belgilansinki, **Tibbiyotni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari quyidagilarga sarflanadi**:

sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari va Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi davlat tibbiyot muassasalarining **moddiy-texnika bazasini** mustahkamlash, dasturiy mahsulotlar sotib olish va axborot-kommunikatsiya tarmoqlariga texnik xizmat ko‘rsatish;

tibbiy asbob-uskunalar, kompyuterlar, planshetlar, multimedia va tarmoq qurilmalari, dasturiy ta’minotlarni **xarid qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini** keng joriy qilish va rivojlantirish;

sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari va Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi davlat tibbiyot muassasalarining **xodimlarini xorijda tayyorlash va qayta tayyorlash**, shuningdek, o‘qitish, malaka oshirish va tajriba almashishni respublikada tashkil etish uchun **xorijiy mutaxassislarni** jalb etish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish;

sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari, shuningdek, Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi muassasalar va tashkilotlarning **kadrlar salohiyatini** mustahkamlashga qaratilgan tadbirlarni moliyalashtirish;

onkogematologik va davolash qiyin bo‘lgan kasalliklar bo‘yicha **yuqori texnologik murakkab operatsiyalarni** amalga oshirish **uchun mutaxassislarni**, shu jumladan**, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish**;

mahalliy va xorijiy ekspertlar va konsalting tashkilotlarini jalb qilish, sog‘liqni saqlash sohasidagi **keng ko‘lamli vazifalarni** amalga oshirish maqsadida ekspertlik guruhi faoliyatini tashkil etish va moliyalashtirish;

**onkogematologik va davolash qiyin bo‘lgan kasalliklarga** chalingan bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatish uchun tegishli tibbiyot muassasalarini **kapital va joriy ta’mirlash**, **qurish** va **rekonstruksiya qilish**, ularga asbob-uskunalar, dori vositalari, tibbiy buyumlar, laboratoriya reaktivlari va boshqa sarflash vositalarini xarid qilish;

Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan ro‘yxat asosida og‘ir kasallikka chalingan **yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning** respublikada amalga oshirilmaydigan jarrohlik amaliyotlarini xorijiy mamlakatlarda o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash;

onkogematologik va davolash qiyin bo‘lgan kasalliklarga chalingan bemorlarga respublika hududidagi **davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlarining** yuqori texnologik tashxis va davolash-profilaktika xizmatlarini xarid qilish xarajatlarini qoplash;

Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimi xodimlarini **o‘qitish, qayta tayyorlash va stajirovkasini** tashkil etish, shu jumladan, xorijiy mamlakatlarga tashriflarini, O‘zbekiston hududidan tashqarida o‘tkaziladigan konferensiyalar, seminarlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etishini, xizmat safariga yuborilishini tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash;

oliy va o‘rta tibbiyot ta’lim muassasalarining **iqtidorli talabalariga maxsus stipendiyalar** to‘lashga sarflanadigan xarajatlarni moliyalashtirish;

**Tibbiyotni rivojlantirish jamg‘armasi** va **uning direksiyasi**, shuningdek, Institut va uning hududiy bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish va **qo‘llab-quvvatlash** bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash;

Sog‘liqni saqlash vazirligi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan boshqa tadbirlarni hamda **sog‘liqni saqlash sohasida** olib borilayotgan **islohotlarni** amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish.

10. **2024-yil 1-yanvardan** Sog‘liqni saqlash vazirligi markaziy apparati tuzilmasida vazirlik boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni doirasida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan **Tibbiyotni rivojlantirish jamg‘armasi direksiyasi** tashkil etilsin.

11. Belgilansinki:

Tibbiyotni rivojlantirish jamg‘armasi mazkur Farmonda nazarda tutilgan birlashtirilayotgan jamg‘armalarning **barcha majburiyatlari** va **daromadlar manbalari** bo‘yicha **huquqiy vorisi** hisoblanadi;

**Tibbiyotni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari uning kuzatuv** kengashi qaroriga asosan **qat’iy ravishda** ushbu Farmonda ko‘rsatilgan **yo‘nalishlarga** sarflanadi;

**Tibbiyotni rivojlantirish jamg‘armasining** joriy moliya yilida **foydalanilmagan (o‘zlashtirilmagan) mablag‘lari** keyingi moliya yiliga o‘tkaziladi.

12. Sog‘liqni saqlash vazirligi va Adliya vazirligi **bir oy muddatda Tibbiyotni rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomni** hamda uning kuzatuv kengashi tarkibini tasdiqlasin.

Bunda Tibbiyotni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini sarflashning **shaffof tartibini**, uning daromadlari va xarajatlari to‘g‘risida hisobdorlikni, shuningdek, faoliyatining **ochiqligi** va **oshkoraligini** ta’minlash masalalarini nazarda tutish.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

14. Sog‘liqni saqlash vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda **bir oy muddatda** qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

15. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vaziri A.Sh.Inoyatov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti** **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2023-yil 6-sentabr

O‘zbekiston — Belarus:

# HAMKORLIKNING BUGUNGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI

1

Muloqot yakunida ta’lim hamda fan sohasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash maqsadida qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi.

## Parlamentlararo munosabatlarning muhim bosqichi

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi parlament delegatsiyasi Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Vakillar palatasi raisi Vladimir Andreychenko bilan uchrashdi.

Muloqot davomida O‘zbekiston — Belarus hamkorligi, xususan, parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy va tadbirkorlik sohalarida hamkorlikni rivojlantirish masalalari diqqat markazida bo‘ldi.

Ta’kidlanganidek, ikki tomonlama munosabatlarda parlamentlararo muloqot muhim o‘rin tutadi. Ikki davlat parlament vakillarining MDH Parlamentlararo Assambleyasi va Parlamentlararo Ittifoq kabi xalqaro parlament tashkilotlari doirasidagi faol hamkorligi e’tirof etildi.

Parlament a’zolari oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosi ustidan parlament nazoratini ta’minlash uchun barcha sa’y-harakatni amalga oshirish lozimligini ta’kidladi.

Bundan tashqari, Minsk shahrida bo‘lib o‘tadigan O‘zbekiston — Belarus biznes doiralari hamda tadbirkor ayollar birinchi biznes forumi, unda tadbirkor ayollarning faol ishtiroki masalalari ko‘rib chiqildi.

Tomonlar madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha ham o‘zaro fikr almashishdi.

## Yangi sheriklar izlash va o‘zaro aloqalar o‘rnatish imkoniyati

Oliy Majlis Senati Raisi boshchiligidagi mamlakatimiz delegatsiyasi O‘zbekiston — Belarus biznes doiralari va tadbirkor ayollar birinchi biznes forumi doirasida Belarus savdo-sanoat palatasi tomonidan tashkil etilgan mahalliy ishlab chiqarish uskunalari va mahsulotlari ko‘rgazmasiga tashrif buyurdi.

Ko‘rgazmadan oziq-ovqat, to‘qimachilik, tibbiyot, ta’lim hamda turizm sohalarida mahsulotlar ishlab chiqaruvchi 40 ga yaqin mahalliy korxonalar mahsulotlari o‘rin oldi. E’tiborli tomoni shundaki, ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va tajriba almashishga alohida e’tibor berilib, ko‘rgazma doirasida muhokamalar hamda biznes-uchrashuvlar ham tashkil etildi.

Biznes-muloqot maydonchalarida yurtimizdan Belarusga borgan tadbirkorlar va ushbu mamlakat ishbilarmonlari diqqati sanoat ishlab chiqarishining asosiy masalalari hamda o‘zaro ko‘p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratildi.

Mazkur tadbir doirasida oziq-ovqat sanoati, ta’lim va fan, turizm va dam olish yo‘nalishlarida taqdimotlar ham o‘tkazildi. Ishtirokchilar tajriba almashish, yangi hamkorlar izlash va istiqbolli aloqalar o‘rnatish imkoniga ega bo‘ldilar.

Shuningdek, yurtimiz eksportchi korxonalarining mahsulotlari “Made in Uzbekistan” yagona milliy brendi ostida namoyish etildi.

## Ishbilarmonlar uchun manfaatli maydon

Minsk shahrida O‘zbekiston — Belarus biznes doiralari va tadbirkor ayollarning birinchi biznes forumi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda mamlakatimiz iqtisodiyotining deyarli barcha tarmog‘i, xususan, sanoat va qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat, farmatsevtika sanoati, madaniy-gumanitar, shuningdek, turizm hamda transport kabi sohalarning vakillari bo‘lgan biznes doiralar va ishbilarmon ayollar qatnashdi.

Forum doirasida tashkil etilgan “Tadbirkorlikdagi ayollar — Belarus va O‘zbekiston o‘rtasidagi ishbilarmonlik hamkorligini rivojlantirish salohiyati” mavzuidagi yalpi majlisni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi va Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Respublika kengashi raisi kirish so‘zi bilan ochib berdi.

Ta’kidlanganidek, yengil sanoat sohasida hamkorlikni kengaytirish, ilg‘or texnologiyalar almashish, mato, kiyim-kechak, poyabzal, mo‘yna va charm mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi sheriklikni chuqurlashtirish hamda IT sohasida aloqalarni rivojlantirish, tadbirkorlik, ayniqsa, ayollar uchun raqamli mahsulotlarni birgalikda ishlab chiqish, xotin-qizlarni raqamli iqtisodiyotga jalb etish, ayollarning bu boradagi savodxonligi va malakasini oshirish bo‘yicha tajriba almashish ikki mamlakat ishbilarmonlari uchun birdek manfaat keltiradi.

Shuningdek, yalpi majlisda tibbiyot sohasida hamkorlikni mustahkamlash, farmatsevtika sanoatini rivojlantirish, tibbiy klasterlar yaratish, oziq-ovqat sanoati, avtomobilsozlik uchun kimyo mahsulotlari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, turizm yo‘nalishlarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha fikrlar bildirildi.

Forum so‘ngida yakuniy hujjat (deklaratsiya) qabul qilindi. Unda savdo-iqtisodiy, investitsiya, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-madaniy, ta’lim, gumanitar, turizm va o‘zaro manfaatli boshqa sohalardagi hamkorlikni kuchaytirish masalalari aks etdi.

Shuningdek, ikki mamlakat tadbirkor ayollari o‘rtasida “B2B” formatida o‘tkazilgan uchrashuvlar natijasida 92 mln. dollar miqdorida 42 ta shartnoma hamda 17 ta memorandum imzolandi.

**“Xalq so‘zi”.**

# OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI — GLOBAL MASALA



← 1 Zero, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ham bugun oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ularni taqsimlash bo'yicha yondashuvni mutlaqo o'zgartirish vaqti kelganini ta'kidlayapti.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari Ostonada bo'lib o'tgan Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha kengash yig'ilishida ham oziq-ovqat va energiya xavfsizligiga qarshi tahdidlar xatarli darajaga yetib, ko'plab mintaqalarda ijtimoiy larzalar va beqarorlik holatlarini keltirib chiqarayotganini, oziq-ovqat xavfsizligi o'zaro hamkorlikning asosiy yo'nalishi bo'lib qolishi zarurligini ta'kidladi.

Prezidentimiz narx-navoning sun'iy o'sishiga yo'l qo'ymaslik hamda inflyatsiyani jilovlash maqsadida MDH makonida oziq-ovqat mahsulotlari to'siqlarsiz yetkazib berilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish muhimligiga e'tibor qaratdi. Shuningdek, O'zbekiston o'z hamkorlarini uzoq muddatli fyuchers shartnomalarini tuzish orqali oziq-ovqat mahsulotlari, xususan, ertapishar qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashga tayyor ekanligini, g'alla, yog'-moy va ozuqabop ekinlarning kafolatlangan tarzda yetkazib berilishidan manfaatdorligini bildirdi.

Prezidentimizning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasidagi bu kabi tashabbus va takliflari mazkur sohadagi muammo hamda to'siqlarni bartaraf etish, tobora jiddiy tus olayotgan ushbu global masalaga nisbatan tahdidlarni yumshatishda muhim ahamiyatga ega. Negaki, bugun Yer sayyorasida qurg'oqchilik, cho'llanish, suv tanqisligi kabi ekologik va boshqa turli ko'rinishdagi muammolar, o'z navbatida, oziq-ovqat xavfsizligiga ham tahdid solayotir. Muammoga doimiy e'tibor hamda ushbu yo'nalishdagi uzoqni ko'zlab amalga oshiriladigan dastur va rejalar, hamkorlikdagi sa'y-harakatlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu esa dunyoning turli burchaklarida ochlikdan, to'yib ovqat yemaslikdan aziyat chekayotgan insonlar taqdirini ijobiy tomonga o'zgartirishga xizmat qilsa, ajabmas.

Xo'sh, oziq-ovqat xavfsizligi nima? Oziq-ovqat xavfsizligi — har bir insonning faol va sog'lom turmush tarzini olib borishi uchun zarur bo'lgan xavfsiz yegulikka ega bo'lish imkoniyati. Shu nuqtai nazardan, ushbu masala davlatning agrar va iqtisodiyot sohasidagi siyosatining bosh maqsadi hisoblanadi. Demak, oziq-ovqat xavfsizligiga intilish bir kunlik ish emas. U to'xtovsiz davom ettiriladigan jarayon. Umuman olganda, u bu boradagi ishonchli iste'mol qilinadigan mahsulotlarning yetarli miqdorda mavjudligini nazarda tutadi.

## Dunyoda vaziyat qanday?

BMT ma'lumotiga ko'ra, COVID-19 pandemiyasi, ayrim mintaqalarda kuzatilayotgan ziddiyatlar oqibatida ta'minot zanjirlarida kuzatilayotgan uzilishlar, suv taqchilligi, iqlim inqirozi va noqulay ob-havo sharoitlari, dunyo aholisining ko'payib borayotgani, jadal urbanizatsiya jarayoni natijasida ekin maydonlarining qisqarishi ham oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hamda aholining ehtiyojlarini qondirish masalasini keskinlashtirmoqda. Buning oqibatida favqulodda yordamga muhtoj 193 million kishi xavfsiz oziq-ovqat imkoniyatidan mahrum bo'lgan. Demak, sayyoramizda muammodan chiqish yo'llari izlanmas, aniq choralar ko'rilmas ekan, ocharchilikning oldini olish, onalar va bolalar o'limini kamaytirish, ijtimoiy xavflarni jilovlash borasidagi maqsadlarga erishib bo'lmaydi. Shundoq ham ayrim davlatlarning dunyoga hukmronlik qilish orzusi tufayli to'yib ovqat yemaslik va oziq-ovqat yetishmovchiligi global olamning "yangi realligi"ga aylandi.

Xususan, 2022-yilda Yer yuzida ocharchilikda kun ko'rayotgan 690 milliondan 783 million nafargacha insonlar borligi aniqlangan. Bu COVID-19 pandemiyasi boshlangan vaqtga qaraganda 122 million kishiga ko'p. Suv yetishmovchiligi tufayli Afrika, G'arbiy Osiyo va Karib havzasida ocharchilik miqyosi tobora ortib borayotganligi achinarli, albatta. Xavotirlar faqat ocharchilik bilan bog'liq emas. 2022-yilda salkam 2,5 milliard kishi, ayniqsa, qishloq joyda yashaydigan, aksariyati, ayollar va bolalardan iborat insonlar to'yimli, xavfsiz oziq-ovqat ta'minotida yetishmovchilikka duch kelgan. Natijada 148 milliondan ziyod besh yoshgacha bo'lgan bolalar yoshiga nisbatan bo'yining pastligidan, 45 millioni sillasi qurishdan, 37 millioni keragidan ortiq semirib ketishdan aziyat chekayotir.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, jahonning 54 mamlakatida oilalar moddiy ahvoli darajasining pasayishi kuzatilgan, 20 dan ziyod davlatlar aholisining asosiy qismi ochlikdan qiynalmoqda. 12 ta mamlakatda aholining o'rtacha umr ko'rishi qisqargan, so'nggi yillarda dunyoning bir necha yuz millionlab aholisi ochlikdan aziyat chekyapti. Jahon aholisining 815 million nafari och qolayotgan bo'lsa, 2050-yilga borib bu raqam 2 milliard kishiga yetishi taxmin qilinmoqda. Ularning 12,9 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi. Bu, albatta, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishdagi muammolar va uning xavfsizligi bilan bog'liq jarayonlar fonidagi vaziyatdir.

## O'zbekistonda ahvol qanaqa?

Dunyoda oziq-ovqat narxi oshishi va tanqisligi kuzatilayotgan bugungi sharoitda O'zbekistonda ham narx-navo bir oz ko'tarilishi mumkin, lekin taqchillik yoki mahsulot yetishmasligi holati kuzatilmaydi. Chunki O'zbekiston oziq-ovqat zaxirasi mo'l mamlakatlar sirasiga kiradi. Shunday bo'lsa-da, xotirjamlikka berilmasligimiz lozim. Aholining turmush farovonligi va sifatini oshirish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash muammosi bilan chambarchas bog'liq ekan, shu bois yurtimizda mustaqilligimizning dastlabki yillaridan ushbu masala ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning markaziy o'rinlariga qo'yildi.

Keyingi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ushbu muhim masalaga e'tibor yana-da kuchaytirildi. Sohaga oid qator huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ular asosida muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish borasida so'nggi yillarda ijobiy natijalarga erishildi. Birgina tomorqalardan unumli foydalanish, almashlab ekish, yerdan 2-3 martalab hosil olishning yo'lga qo'yilishi natijasida mahsulotlar aholining ehtiyojlaridan ortib, mahalliy va dunyo bozorlariga chiqarilmoqda.

Sohada amalga oshirilayotgan ishlar natijasida O'zbekistonning Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi reytingidagi o'rni ko'tarilib bormoqda. Ushbu reytingda 113 mamlakatda oziq-ovqatning mavjudligi, sifati va xavfsizligi, shuningdek, tabiiy resurslar va barqarorlik masalalari hisobga olingan. Tahlil natijalariga ko'ra, mazkur indeksning 2019-yildan 2022-yilgacha bo'lgan umumiy reytingida O'zbekiston 12 pog'onaga ko'tarildi. Shu tariqa mamlakatimiz 2019 — 2022-yillarda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda jadal rivojlanishga erishgan o'nta davlat orasida birinchi o'rinni egalladi.

Davlatimiz rahbarining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasidagi tashabbus va takliflari mazkur sohadagi muammo hamda to'siqlarni bartaraf etish, tobora jiddiy tus olayotgan oziq-ovqat xavfsizligiga nisbatan tahdidlarni yumshatishda muhim ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda respublika qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan, sohada davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirilmoqda. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi qabul qilindi. Unga muvofiq, oziq-ovqat xavfsizligi keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik omillarga bog'liq bo'lib, mamlakat rivojlanishining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

## Agrar tarmoq — xavfsizlik kafolati

Qishloq xo'jaligi xalqimiz rizq-ro'zi, ish o'rinlari va daromad manbai, oziq-ovqat xavfsizligi kafolati. Sohada minglab loyihalar amalga oshirilyapti. Jumladan, zamonaviy issiqxonalar, intensiv bog'lar, ko'chatchilik xo'jaliklari va muzlatkichli omborxonalar tashkil etildi. Ayni paytda global bozorlardagi narxlarning keskin tebranishini hisobga olib, mutasaddi idoralar va hududlar rahbarlariga ichki bozorda narxlar barqarorligini saqlash, avvalo, aholini yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish lozimligi takror-takror uqtirilmoqda. Bu bejiz emas.

Tahlillarga ko'ra, joriy yilda dunyoda oziq-ovqat mahsulotlari narxi kamida 20 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda. Mamlakatimizda aholi daromadining 40 — 50 foizi oziq-ovqatga sarflanadi. Shu bois bunday mahsulotlarni ko'paytirib, narx-navoning aholi ro'zg'origa ta'sirini yumshatish choralari ko'rilmoqda. Qanchalik murakkab bo'lmasin, yurtimiz qishloq xo'jaligida erkin raqobatni ta'minlaydigan bozor tamoyillariga o'tib borilmoqda. Masalan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bu boradagi islohotlar bir necha yil oldin boshlangan bo'lib, g'alla bozorini erkinlashtirish yo'lidagi muhim qadamlar tashlandi.

Olaylik, 2022-yil 28-may kuni Prezidentimizning "G'allani yetishtirish va sotishda bozor tamoyilini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qaror bilan o'tgan yilning 1-iyunidan boshlab g'allani davlat tomonidan sotib olish va sotishda bozor narxlariga o'tilib, g'allachilik klasterlari va fermerlarga bug'doyni bozor narxida to'liq erkin sotish huquqi berildi. Bu qishloq xo'jaligi sohasini erkinlashtirish, fermer va dehqon xo'jaliklarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy manfaatdorligini oshirish yo'lidagi yana bir muhim qadam. Endi dehqon, fermer, klasterlar o'zi yetishtirgan mahsulotni bozor narxida sotib, mehnatiga yarasha daromad ko'ryapti.

## Yutuqlar qatori muammolar ham bor

Davlatimiz rahbari Buxoro viloyatiga tashrifi chog'ida ham oziq-ovqat masalasiga yana bir bor e'tibor qaratdi. Uning raisligida oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish orqali narx-navo barqarorligiga erishish hamda aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini energiya resurslari bilan kafolatli ta'minlash masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Bugungiday murakkab sharoitda mamlakatimizda paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hisobiga aholiga dehqonchilik qilishi uchun 200 ming gektar yer maydonlari ajratildi. Natijada 700 ming nafar aholi doimiy, yana 1,3 million nafari mavsumiy ishga ega bo'ladi. 90 foiz dehqonlarning daromadlari ko'paydi. Kartoshka bilan o'zini o'zi ta'minlaydigan tumanlar 112 taga, piyoz bilan — 144 ta va sabzi bilan — 146 taga yetkazildi. Mazkur choralar tufayli bozor va do'konlarimiz to'kinligi barqarorlashdi, eksport hajmi oshdi, jon boshiga daromad o'sdi. Qishloqlarda juda ko'p ijtimoiy muammolar, avvalo, ishsizlik va kambag'allik masalasi yechildi.

Ammo muammolar ham yo'q emas. Bugungi kunda 94 ta tuman va shahar o'z aholisining kartoshkaga bo'lgan talabini ta'minlay olmaydi, 62 tasi piyoz, 60 tasi sabzi, 84 tasi go'sht, 139 tasi parranda go'shti va tuxumni boshqa hududlardan olib keladi. Davlatimiz rahbari har bir masalaga alohida to'xtalib, muammolarning yechimini ko'rsatib o'tdi. Paxta va g'alla maydonlarini qisqartirib, bu yil kuzda va kelgusi yil bahorida yana 70 ming gektar ekin yerlarini aholiga tarqatish reja qilingan. Ammo joylardagi rahbarlar bugungi kungacha ajratilgan 200 ming gektar yerdan samarali foydalanishni to'g'ri tashkil qila olmayotir. Jumladan, suv ta'minoti va unumdorligi yaxshi bo'lmagani uchun jami yerlarning 13 ming gektari yoki 8 foizi qarovsiz turibdi.

Yig'ilishda takroriy ekinlar ekilish holatiga to'xtalib o'tilgani sababi ham shunda. Iyul oyida yillik inflyatsiya darajasi 8,9 foizni, oziq-ovqat mahsulotlarida esa 10,7 foizni tashkil qildi. Bu borada kartoshka, piyoz, un va yog' mahsulotlari o'tgan yildagiga nisbatan arzonlashgani muhim omil bo'ldi. Lekin takroriy ekin ekish ishlari to'g'ri tashkil etilmagani bois ayrim hududlarda sabzi narxi 52 foizgacha oshgan, pomidor 2 barobar qimmatlagan, bodring narxi 1,7 barobargacha o'sgan. Bundan tashqari, respublika bo'yicha bor-yo'g'i 44 ming gektarga kartoshka takroriy ekin sifatida ekilgan.

Narxlar oshishiga yo'l qo'ymaslik, inflyatsiyaning oldini olishning yana bir yo'li — dala chetlaridan samarali foydalanishdir. Joriy yildan boshlab 70 mingdan ziyod fermerlarning 60 ming gektar bo'sh dala chetlarida uzum, qovoq, qovun, tarvuz va sabzavot ekib, qo'shimcha 220 ming tonna mahsulot yetishtirish, 600 ming bosh parranda va 300 ming dona asalari oilasini boqish bo'yicha katta dastur qabul qilingan. Lekin ayrim viloyat va tumanlarda loqaydlik, e'tiborsizlik kuzatilayotgani achinarli. Jumladan, sabzavot, poliz va boshqa ekinlar Navoiyda faqat 31 foiz, Farg'onada 34 foiz, Toshkent viloyatida 70 foiz maydonlarga ekilgan xolos. Qoraqalpog'istonda 16 ming gektar dala chetlari mavjud bo'lsa-da, 5 ming gektar bilan cheklangan, Namanganda 17 ming gektar o'rniga 3,5 ming, Qashqadaryoda 26 ming gektar o'rniga 12 ming, Buxoroda 22,5 ming gektar o'rniga atigi 5,5 ming gektar dala chetlari o'zlashtirilgan. Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligi kompleksi rahbarlari viloyat va tuman hokimlari bilan birga bo'sh dala chetlaridan samarali foydalanish bo'yicha mas'uliyatini kuchaytirishi shartligi ko'rsatib o'tildi.

## Mahsuldorlikni oshirish — dolzarb masala

Ma'lumki, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i sanaladi. Unda 3,6 million kishi, ya'ni iqtisodiyotda band



Hasan PAYDOYEV olgan surat.

bo'lganlarning 27 foizi ishlaydi. YAIMda tarmoq ulushi 32 foizga teng bo'lsa, sohada foydalaniladigan yer maydonlari respublika hududining 45 foizini egallaydi. Hozirgi vaqtda 180 dan ortiq turdagi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari 80 dan ortiq mamlakatlarga eksport qilinayotgani diqqatga sazovor. Yana bir e'tiborli jihati, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning klaster usuli yo'lga qo'yilib, u keng quloch yozyapti. Ular bilan qishloq xo'jaligi yer maydonlarining 62 foizi paxta-to'qimachilikda, 8 foizi chorvachilikda va 7,5 foizi meva-sabzavotchilikda qamrab olingani buning tasdig'i.

Shular qatorida sohani yanada rivojlantirish, fermerlar daromadini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda tabiiy resurslardan barqaror foydalanish borasida foydalanilmayotgan qator imkoniyatlar mavjud. Davlatimiz rahbarining 2018-yil 16-yanvardagi "Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yana-da ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi shu nuqtai nazardan dolzarbdir.

Sir emaski, yurtimizda eksport-import operatsiyalarini tartibga solish, ehtiyoj katta bo'lgan oziq-ovqat tovarlarini import qilishdagi to'siqlar, nosog'lom raqobat, ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan import mahsulotlarining monopollashtirilishi, narx-navoning sun'iy oshirilishi, taqchillikning yuzaga kelishi kabi bir qator muammolar mavjud edi. Yuqorida aytilgan Farmonning hayotga tatbiq etilishi yurtimiz bozorlarini sifatli, arzon va xavfsiz oziq-ovqatlar bilan to'ldirish, aholining xarid imkoniyatlarini mustahkamlash, sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish imkonini berdi.

Ko'pchilikka ma'lumki, ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarga oziq-ovqat tovarlarini xorijdan import qilish bo'yicha bir qator individual bojxona, soliq va boshqa imtiyozlar, preferensiyalar berilgan edi. Natijada davlatimizning milliard so'mlab mablag'lari sarflanardi. Lekin bu amaliyot o'zini oqlamadi. Oziq-ovqat mahsulotlari importi ayrim subyektlar tomonidan monopoliyaga aylantirildi. Xorijdan keltirilayotgan shakar, qand, o'simlik yog'lari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ichki bozorda ko'payishi hamda narx-navo pasayishi o'rniga aksi bo'lib qoldi. Farmonga ko'ra, 2018-yil 1-fevraldan boshlab oziq-ovqat tovarlari importi uchun beriladigan barcha imtiyoz va preferensiyalar bekor qilindi. Pirovardida iste'mol tovarlari respublika tovar-xomashyo birjalarida sotilmoqda.

Qisqacha aytganda, mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlari narxini pasaytirish, sifat va xavfsizligini ta'minlash, chayqovchilik holatlariga chek qo'yish, byurokratiyani bartaraf etish, xorijiy investorlar va hamkorlar bilan muntazam muloqot hamda hamkorlikni yo'lga qo'yish borasidagi barcha muammo va sun'iy g'ovlarga chek qo'yilayotir.

Boz ustiga, O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun sohaga oid qonunchilikni yana-da mustahkamlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida oziq-ovqatlar ulushining yuqori bo'lishiga erishish, agrar tarmoqda suvdan foydalanish tizimini takomillashtirish kabi choralarga qo'l urilmoqda. Tomchilatib sug'orish yetishtirilayotgan oziq-ovqat tannarxini pasaytirish va yer sifati yomonlashishining oldini olishga ko'maklashadi. Demak, hosildorlik va oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishning qo'shimcha hajmlaridan olinadigan foyda ham oshadi.

Ayni chog'da dehqonchilik mahsulotlari hosildorligi va chorvachilikda mahsuldorlikni oshirish vazifalarini hal etish uchun zamonaviy agrotexnologiyalar joriy etilishini rag'batlantirish, qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish va tayyorlash, taqsimlash, qayta ishlash va sotishning samarali tizimini yaratish yo'lida ham ulkan choralarga qo'l urilmoqda. Xususan, butun yil mobaynida ham oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydigan, ham narxlarning mavsumiy o'zgarib turishini pasaytiradigan mexanizm yaratish dolzarb bo'lib qolayotir. Prezidentimiz sohadagi dolzarb vazifalarga bag'ishlangan har bir yig'ilishda yangi va qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashning samarali usullarini tatbiq etishga mutasaddilar e'tiborini qaratyapti. Boisi, 2025-yilga borib O'zbekiston o'rtacha darajadan yuqori daromad oladigan mamlakatlar guruhiga o'tishi maqsad qilingan. Bu turmush tarzi, xulq-atvor andozalari, ovqatlanish tarkibining tegishli tarzda o'zgarishiga olib keladi.

Shularni e'tiborga olgan holda, bir qancha tovarlar bo'yicha qayta ishlanadigan oziq-ovqat mahsulotlari ulushi o'sishini ta'minlash zarur bo'ladi. Qolaversa, ovqatlanish standartlari va me'yorlarini joriy etish, sifat ustidan nazorat qilish mexanizmini yana-da rivojlantirish lozim. Aholining ovqatlanish modelini yaxshilash maqsadida sog'lom ovqatlanish to'g'risidagi zarur axborotni tarqatish, bu borada tibbiyot muassasalari faolligini oshirish zarur. Zero, xalq salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish hayotiy muhim masala. Qishloq xo'jaligidagi islohotlardan maqsad ham iqtisodiy foyda ko'rish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, xalq farovonligini oshirishdan iborat.

**Sadritdin TUROBJONOV,**
**Toshkent davlat texnika universiteti rektori, professor.**

Sud-huquq tizimi:

# OCHIQLIK VA OSHKORALIK — BOSH MEZON

← 1 Sud tizimi ochiqligini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati haqida jamoatchilik hamda ommaviy axborot vositalarini xabardor qilish bugun har qachongidan dolzarb. Shu maqsadda har chorakda viloyat sudlari raislari va ularning o'rinbosarlari tomonidan brifinglar o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Natijada OAVda, qolaversa, ijtimoiy tarmoqlarda yolg'on axborotlar tarqalishining oldi olinmoqda.

Muhim amaliy ishlardan biri — qabul qilingan sud hujjati o'qib eshittirilganidan so'ng uning mazmun-mohiyati sud protsessi ishtirokchilariga tushuntirilyapti, sudlar chiqargan qarorlar Oliy sud veb-saytida muntazam ravishda e'lon qilib borilmoqda. Bu aholi o'rtasida turli tushunmovchiliklar kelib chiqishining oldini olish, odamlarning joylarda sudma-sud sarson bo'lib yurishiga barham berishga xizmat qilmoqda. Albatta, bu boradagi ishlar samaradorligini yanada oshirish zarur.

Bundan tashqari, Oliy sudda Jamoatchilik bilan hamkorlik markazi (PR markaz) hamda viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda matbuot xizmatlarining tashkil etilganligi aholi bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yish va sud hokimiyatining ochiqligini oshirish yo'lida ko'rilgan muhim chora bo'ldi. Ayni paytda sud tizimi matbuot kotiblari yordamida axborot almashinuvida, ya'ni ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ochiqlik, xolislik va ishonchlilik kabi asosiy mezonlar ta'minlanmoqda.

Yana bir ahamiyatli jihati, sud jarayonida ishlarning oshkora ko'rilishini, tortishuv tamoyilini to'liq ta'minlash maqsadida jinoiy-protsessual qonunchilikka 2021-yil fevraldan dastlabki eshituv instituti joriy etildi.

Shu o'rinda dastlabki eshituv instituti qanday protsessual jarayon va uning maqsadi nimalardan iborat, degan savol tug'iladi.

Qayd etish joizki, ushbu institutning maqsadi — sud majlisida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan protsessual qonun buzilishlarining oldini olibgina qolmay, jinoyat ishini ochiq sud majlisida mukammal ko'rish uchun tayyorlashdan iboratdir.

Shulardan kelib chiqib, yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, bu institut sud muhokamasiga tayyorgarlik ko'rish bilan birga, fuqarolarning huquq, erkinliklari tiklanishiga, ularning sud va tergov organlari idoralarida behuda vaqt sarflashiga barham berishga, protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar maqsadsiz yo'naltirilishining oldini olishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Ayni paytda protsessual muddatlar sababsiz cho'zilishining oldini olish natijasida qonuniy va asosli qaror qabul qilinishiga zamin yaratadigan bosqich sanaladi.

Aytish kerak, bugun dastlabki eshituv amaliyotidan ko'plab mamlakatlar samarali foydalanib kelmoqda. Ayrim davlatlarda sudyaning dastlabki eshituv borasida qabul qilgan qarori ustidan shikoyat berish huquqi mavjud emas. Milliy qonunchiligimizda dastlabki eshituv instituti amaliyotga joriy etilgani barobarida, fuqarolarning shikoyat keltirish bilan bog'liq huquqlari ham ta'minlangani diqqatga sazovor. Chunki shikoyat qilish huquqi shaxsning konstitutsiyaviy huquqlaridan biridir. Shu jihatdan, mamlakatimizda inson huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Muxtasar aytganda, so'nggi yillarda sud-huquq yo'nalishida hayotga tatbiq qilinayotgan muhim hayotiy chora-tadbirlar ushbu tizimni takomillashtirish, uni xalqaro standartlarga, ochiqlik va adolatlilik tamoyillariga yanada yaqinlashtirish yo'lida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Eng muhimi, odamlarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini mustahkamlayapti. Albatta, bularning barchasi pirovardida yangi O'zbekistonda odil sudlovni ta'minlash, inson huquqlarini izchil kafolatlash, sudlar faoliyatidan xalqimizni rozi qilish maqsadlariga xizmat qiladi.

**Odiljon TOJIYEV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari.**

# TADBIRKOR VA INVESTORLARNING ISHONCHLI HIMOYACHISI

*Tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishi sanaladi. Lekin tadbirkor o'z faoliyati davomida muayyan to'siq yoki muammoga duch kelishi tabiiy. Bunday vaziyatda ularning haq-huquqlarini himoya qilishda sudlarning alohida o'rni bor. Binobarin, tadbirkorlarning huquq va erkinliklari mustahkam himoyada bo'lgan, biznes vakillariga qulay imkoniyat yaratilgan va ularning muammolariga yechim topishga alohida e'tibor qaratilgan davlat jadal taraqqiy etadi, jahon hamjamiyatidagi o'rni va nufuzi baland bo'ladi.*

## Munosabat

Keyingi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlariga teng sharoitlar yaratish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali ishonchli himoya qilishni ta'minlashga qaratilgan ishlar milliy iqtisodiyotni yangi bosqichda rivojlantirishda muhim omil bo'layotir.

Xususan, Prezidentimiz tomonidan sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, odil sudlovni samarali hamda sudlar mustaqilligini amalda ta'minlash bo'yicha qabul qilingan bir qator Farmon va qarorlar mamlakatda tadbirkorlik faoliyatining keng quloch yoyishiga zamin yaratmoqda.

Yagona sud amaliyotini ta'minlash maqsadida Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi sud hokimiyatining yagona oliy organi — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga birlashtirilgani, ilk bor Oliy sud ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati va hududlarda ma'muriy sudlar tashkil etilgani, shuningdek, tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini sudda himoya qilish kafolatini kuchaytirish maqsadida iqtisodiy sudlar faoliyati yo'lga qo'yilgani bugun o'zini to'la oqlamoqda, desak, ayni haqiqat.

Boisi birgina iqtisodiy sudlar tashkil etilganidan so'ng ming-minglab tadbirkorlarning muammolari qisqa fursatda hal qilindi. Davlat organlari va tadbirkorlar o'rtasidagi muloqot umuman boshqacha ko'rinish kasb etib, rahbar va amaldorlarni aholiga yaqinlashtirdi.

Ilgari xo'jalik sudlari faqat viloyat darajasida faoliyat ko'rsatardi. Ayrim tumanlar sud binosidan uzoq masofada joylashgani tufayli tadbirkorlar da'vo arizasini bergan paytdan nizo sudda ko'rib chiqilguniga qadar viloyat markaziga bir necha marotaba qatnashga majbur edi. Bu esa ularning ortiqcha xarajat va vaqt sarflashlariga sabab bo'lardi.

2017-yilda tashkil etilgan iqtisodiy sudlar joylashuvi uzoq hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarning, shu jumladan, tadbirkorlarning sud himoyasiga erishish darajasini oshirdi. Xususan, 2017 — 2022-yillar hamda joriy yilning birinchi yarmida 286433 ta ish bo'yicha tadbirkorlik subyektlari manfaatida sud qarorlari chiqarilib, ularning foydasiga 16,1 trln. so'm miqdoridagi mablag'larni undirish belgilangan.

Yana bir muhim masala. Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning asl mohiyati investitsiya muhitini yaxshilash, iqtisodiyotni rivojlantirish orqali xalq farovonligiga erishishdan iborat. Bunda chet eldan investorni jalb etish uchun unga, birinchi navbatda, qulay ishbilarmonlik muhiti, huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun qonuniy kafolatlar yaratib berish lozim.

Bu borada investorlar huquqlarini munosib himoya qilish maqsadida Oliy sudda investitsiyaviy nizolar va raqobatga oid ishlarni ko'rish bo'yicha maxsus sudlov tarkibi tashkil etilgani ayni muddao bo'ldi. Unga ko'ra, yirik investorlar o'z xohishiga ko'ra, nizoni hal qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri Oliy sudga murojaat etishi mumkin. Ya'ni investitsiyaviy nizolar bo'yicha yirik investorning, raqobatga oid ishlar bo'yicha taraflarning xohishiga ko'ra, ushbu toifadagi ishlar bevosita Oliy sud tomonidan, qolgan barcha investitsiyaviy nizolar investorning xohishiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari tomonidan birinchi instansiya sudi sifatida ko'riladi.

Hech shubhasiz, Oliy sudda investitsiyaviy nizolar bo'yicha maxsus sudlov tarkibining tashkil etilishi, ushbu toifadagi ishlar bo'yicha alohida sudlovlilik qoidalarining belgilanishi investorlar nizolarni hal qilish uchun turli sud instansiyalari o'rtasida 5-6 oylab sarson bo'lishining oldini oladi va ularning muammolari bitta sudda hal etilishini ta'minlaydi. Investorlarning odil sudlovga ishonchini kuchaytirish orqali investitsiyaviy jozibadorlik ortadi. Bu esa mamlakatning xalqaro reytinglardagi o'rni oshishiga xizmat qiladi.

Sohadagi eng salmoqli va katta yutuq — bu shubhasiz, 2019 — 2022-yillar hamda 2023-yilning birinchi yarmida investitsiyaviy nizolar bo'yicha 1 232 ta ish ko'rilib, 681 tasi bo'yicha da'vo talablarini qanoatlantirish haqida tegishli sud qarorlari qabul qilinganidir. Bundan ko'rish mumkinki, bugun iqtisodiy sudlar tom ma'noda, tadbirkorlarning, investorlarning chinakam himoyachisiga aylandi.

**Davron ARIPOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

# O‘ZBEKISTON XALQARO MAYDONDA MUSTAHKAM MAVQE, MUNOSIB HURMAT VA E’TIBORGA EGA

1

22-avgust kuni **Dubay**dagi “Andakulova Gallery” va “Legends” art-klubida o‘zbekistonlik taniqli rassom Temur Ahmedovning mamlakatimiz mustaqilligining 32 yilligiga bag‘ishlangan ko‘rgazmasi ochildi.

Ko‘rgazma vatandoshimiz Natalya Andakulova tomonidan O‘zbekiston Bosh konsulligi ko‘magida tashkil etildi. Suratlar ekspozitsiyasida innovatsion usullar qo‘llangan. San’at asarlari va ularning yaratilish jarayoni raqamli ekranda namoyish qilinmoqda.

Mamlakatimizning **Varshava**dagi elchixonasi Polshadagi “O‘zbekiston yoshlar klubi” bilan birgalikda Mustaqillik kuniga bag‘ishlab futbol musobaqasini uyushtirdi. Unda Varshava va Vistula universitetlari, “WSB Human Sciences” akademiyasi talabalaridan, shuningdek, ushbu mamlakatda vaqtincha ishlayotgan vatandosh yoshlardan tuzilgan jamoalar qatnashdi. Turnir yakunida barcha ishtirokchilarga elchixona nomidan faxriy yorliqlar topshirildi. Sport va madaniy-ma’rifiy tadbirlar yurtdoshlarimizni birlashtirib, ularga O‘zbekistonda kechayotgan jarayon va voqealar yuzasidan xolis ma’lumot berish va fikr almashish imkoniyatini yaratayotgani ta’kidlandi.

4-sentabr kuni O‘zbekistonning **Seul** shahridagi elchixonasi tomonidan rasmiy qabul uyushtirildi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon dunyoning barcha rivojlangan davlatlari, jumladan, Koreya Respublikasi bilan yaqin hamkorlik qilib kelayotgani, buning natijasida mamlakatlarimiz o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar alohida strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilgani qayd etildi.

— O‘zbekiston mustaqillik davrida barcha sohada taraqqiyotga erishdi, — dedi Koreya Respublikasi tashqi ishlar vazirining o‘rinbosari Lim Su Suk. — Ayniqsa, so‘nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan oqilona ichki va tashqi siyosat natijasida xalqaro maydonda O‘zbekistonning o‘ziga xos imiji shakllandi. 1992-yilda o‘rnatilgan diplomatik munosabatlarimiz ikki mamlakatning mustahkam ishonch va do‘stlikka asoslangan alohida strategik sheriklar sifatida o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini yana-da jipslashtirishi uchun mustahkam poydevor bo‘ldi.

Tadbirda so‘zga chiqqanlar, shuningdek, O‘zbekiston rahbari olib borayotgan aniq va konstruktiv siyosat natijasida Markaziy Osiyo mintaqasida butunlay yangi ishonch va o‘zaro anglash muhiti shakllangani, shuningdek, dunyoning qator davlatlari bilan aloqalar sifat jihatdan yuqori darajaga ko‘tarilganini ta’kidlashdi.

Bundan tashqari, bayram arafasida “Janubiy Koreyadagi o‘zbekistonliklar uyushmasi” O‘zbekiston elchixonasi ko‘magida Kvanju shahrida tantanali tadbir tashkil etdi.

2-sentabr kuni **Nyu-York** shahrining Uoll-strit moliyaviy markazida mamlakatimiz Mustaqillik kuni munosabati bilan O‘zbekiston davlat bayrog‘ini tantanali ko‘tarish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda Nyu-York shahri meri Erik Adams, shahar siyosiy doiralari va o‘zbek diasporasi vakillari, shuningdek, butun dunyodan kelgan sayyohlar qatnashdi.

O‘zbekiston madhiyasi sadolari ostida bayrog‘imiz baland ko‘tarildi. Marosimda so‘zga chiqqanlar bugun O‘zbekistonning dunyoga ochilayotgani, yuksak darajada hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilayotgani, xalqaro tuzilmalar doirasida ham munosabatlar izchil rivojlanib borayotganini ta’kidlashdi.

“Yurtingizning go‘zal tarixini juda yaxshi bilamiz. Qolaversa, uning madaniyati, an’ana va qadriyatlari ham juda mashhur. Shuni unutmang, Nyu-York markazida O‘zbekiston bayrog‘ini ko‘rar ekanmiz, u barchangizni Vataningizni yod etish va unga munosib bo‘lishga chorlashi tabiiy. Markaziy Osiyoning eng rivojlangan mamlakati sifatida doimo taraqqiy etib borishini tilab qolaman”, dedi Nyu-York shahri meri Erik Adams.

Tantanalar davomida o‘zbek diasporasi badiiy jamoalari tomonidan taqdim etilgan madaniy dastur hamda o‘zbek milliy liboslari namoyishi tadbirga bayramona xushkayfiyat ulashdi.

Kaliforniya shtatining **San-Fransisko** shahrida ham O‘zbekiston mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligi keng bayram qilindi.

29-avgust kuni San-Fransisko shahrida joylashgan “Golden Gate” bog‘ida “San-Fransisko ko‘rfazidagi o‘zbekistonliklar jamiyati markazi” hamda mamlakatimizning Nyu-Yorkdagi Bosh konsulxonasi va “Vatandoshlar” jamoat fondi tomonidan istiqlol ayyomi tantanalari bo‘lib o‘tdi.

Marosim tashkilotchilar va O‘zbekiston delegatsiyasining bayram tabriklari bilan boshlandi. Ishtirokchilarga o‘zbek xalqining boy madaniyati, tarixi, urf-odat va an’analari hamda mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan jadal va keng qamrovli islohotlar to‘g‘risida ma’lumotlar berildi.

Bayram dasturi doirasida o‘zbek milliy hunarmandchilik mahsulotlari ko‘rgazmasi tashkil etildi. Shuningdek, yurtimizdan tashrif buyurgan taniqli estrada xonandalari tomonidan ijro qilingan kuy va qo‘shiqlar bayramning yuqori saviyada o‘tishini ta’minladi.

Tadbir davomida “Vatandoshlar” jamoat fondi va “San-Fransisko ko‘rfazidagi o‘zbekistonliklar jamiyati markazi” o‘rtasida o‘zaro anglashuv memorandumi imzolandi. Shuningdek, San-Fransiskoda istiqomat qilayotgan faol yurtdoshlarimizga fondning tashakkurnomasi va esdalik sovg‘alari topshirildi.

Nyu-Yorkdagi “Kayzer” bog‘ida “Mahalla USA” o‘zbek jamoat birlashmasi tashabbusi bilan mamlakatimizning Bosh konsulxonasi va “Vatandoshlar” jamoat fondi hamkorligida futbol bo‘yicha an’anaviy “Mustaqillik kubogi — 2023” musobaqasi va katta bayram sayli uyushtirildi. Futbol bo‘yicha turnirda AQShning 10 ta shtatidan kelgan vatandoshlardan tuzilgan 15 ta jamoa o‘zaro bahs olib bordi.



27-avgust kuni esa mamlakatimiz mustaqillik kuniga bag‘ishlangan xalq sayillari bo‘lib o‘tdi. Mazkur tadbirda AQShning turli shtatlaridan kelgan yurtdoshlarimiz, Nyu-York shahri siyosiy doira vakillari, jumladan, shahar meri Erik Adams, shtat senati loyiha direktori Zunera Ahmed, shahar Kengashi deputatlari Villiyam Kolton, Ari Kagan, Maxail Novaxov, Alek Bruk-Krasniy, shuningdek, mahalliy aholi va turli millat vakillari ishtirok etdi.

Mamlakatimiz istiqlolining o‘ttiz ikki yilligiga bag‘ishlangan saylda, shuningdek, uchta doshqozonda o‘zbek milliy taomi — palov tayyorlandi.

31-avgust kuni O‘zbekistonning **Kuala-Lumpur**dagi elchixonasida yurtimiz mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligi munosabati bilan bayram tadbiri o‘tkazildi.

Diplomatik vakolatxona rahbari Ravshan Usmonov o‘z so‘zida ishtirokchilarni bayram bilan samimiy qutlab, so‘nggi yillarda respublikamizda barcha jabhada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, boy madaniy meros va turizm salohiyatini keng targ‘ib qilish, o‘zbek tilini rivojlantirish yo‘nalishlarida olib borilayotgan chora-tadbirlar haqida atroflicha to‘xtalib o‘tdi.

AQSh poytaxtida ham mamlakatimiz istiqloliga bag‘ishlangan bayram tadbirlari ko‘tarinki ruhda bo‘lib o‘tdi.

Ushbu sana munosabati bilan **Vashington** meri Myuriel Bauzer 1-sentabrni AQSh poytaxtida “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 yilligi kuni” deb rasman e’lon qildi.

Maxsus deklaratsiyada AQSh poytaxti meri O‘zbekistonda Mustaqillik kunining ahamiyatini alohida ta’kidlagan. Va Amerika Qo‘shma Shtatlari O‘zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo‘lib tan olgani qayd etilgan. Merning bayonoti ushbu kunning ahamiyatini e’tirof qilibgina qolmay, balki o‘zbek jamoalarining Vashingtonning “boy xilma-xilligi, madaniyati va an’analariga” beradigan qadriyatini urg‘ulaydi.

Hujjatda O‘zbekiston elchixonasi ikki tomonlama munosabatlarga yangi dinamizm baxsh etgani va AQSh poytaxtidagi “diplomatik hamjamiyatning faol va ajralmas qismi”ga aylangani alohida ta’kidlangan.

Shu yil 31-avgust kuni **Ostona** shahrida O‘zbekiston mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligiga bag‘ishlab “Yangi hayot uchun, yangi O‘zbekiston uchun!” shiori ostida bayram tadbirlari bo‘lib o‘tdi.

Unda Qozog‘iston Prezidenti Administratsiyasi xodimlari, Hukumat va parlament a’zolari, Konstitutsiyaviy sud, vazirlik va idoralar, ilmiy va akademik muassasalar vakillari, ekspertlar, jurnalistlar, diplomatlar, o‘zbek milliy madaniy markazlari faollari, shuningdek, Qozog‘istonda tahsil olayotgan hamda vaqtincha mehnat qilayotgan vatandoshlar ishtirok etdi.

Elchi Saidikrom Niyozxo‘jayev mehmonlarni qutlash barobarida mamlakatimizning zamonaviy taraqqiyoti, turli yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, O‘zbekiston — Qozog‘iston munosabatlari va istiqbollari haqida to‘xtaldi.

Tadbirda Qozog‘iston milliy iqtisodiyot vaziri Alibek Kuandikov O‘zbekiston xalqini bayram bilan tabrikladi va so‘nggi yillarda ikki davlat munosabatlari jadal o‘sib borayotganini alohida ta’kidladi.

1-sentabr kuni Ostona shahrining “Nur Allem” doirasi va “Qozog‘iston temir yo‘llari” tashkilotining bosh binosi O‘zbekiston milliy bayrog‘i ranglariga burkandi.

Shuningdek, 1-sentabr kuni dunyodagi eng baland bino — **Dubay**dagi Burj-Xalifa O‘zbekiston davlat bayrog‘i ranglarida yoritildi.

Shu kuni O‘zbekistonning BAAdagi elchixonasi va Dubaydagi Bosh konsulligi, “Uzbekistan Airways” AJ vakolatxonasi va o‘zbek diasporasi faollari bilan hamkorlikda “Xiva” restoranida Mustaqillik kuni munosabati bilan bayram kechasi uyushtirildi.

Mamlakatimiz Bosh konsulligi **Tomsk** viloyatidagi “Do‘stlik” o‘zbek jamoat birlashmasi bilan birgalikda O‘zbekiston mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligi munosabati bilan rasmiy qabul tashkil qildi.

Tadbirda Tomsk viloyatida doimiy va vaqtincha yashayotgan faol yurtdoshlarimiz, o‘zbekistonlik talabalar, viloyatdagi oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari ishtirok etdi.

Tomsk davlat arxitektura-qurilish universiteti rektori Viktor Vlasov o‘z so‘zida so‘nggi yillarda mamlakatimiz nafaqat savdo-iqtisodiy xabga, balki Markaziy Osiyoning ilmiy, ma’rifiy va madaniy markaziga aylanganini ta’kidladi.

O‘zbekistonning **Moskva**dagi elchixonasida ham ushbu qutlug‘ sana munosabati bilan rasmiy qabul bo‘lib o‘tdi. Tadbirda Rossiya Prezidenti Administratsiyasi vakillari, parlament a’zolari, tegishli vazirliklar rahbarlari, oliy o‘quv yurtlari rektorlari, akademik va madaniy-gumanitar doira vakillari, diplomatlar, shuningdek, vatandoshlar ishtirok etdi.

Mehmonlarni qutlar ekan, elchi Botirjon Asadov O‘zbekistonning zamonaviy taraqqiyoti, mamlakatimizda barcha yo‘nalishda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, shuningdek, O‘zbekiston — Rossiya munosabatlari va istiqbollari haqida gapirdi.

Rossiya tashqi ishlar vazirining o‘rinbosari Mixail Galuzin o‘z chiqishida xalqimizni bayram bilan tabriklab, so‘nggi yillarda O‘zbekiston — Rossiya munosabatlari jadal rivojlanib borayotganini ta’kidladi.

**Bishkek**da 1-sentabr kuni Mustaqillik kuni hamda O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 30-yilligiga bag‘ishlangan tantanali bayram kechasi uyushtirildi.

Vazirlar Mahkamasi raisining birinchi o‘rinbosari Adilbek Qasimaliyev Qirg‘iziston hukumati nomidan O‘zbekiston xalqini Mustaqillik kuni bilan samimiy qutladi. U mustaqillik yillarida qardosh O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan jamiyatni uyg‘un shakllantirish va iqtisodiyotni jahon bozoriga integratsiyalashtirishda ulkan muvaffaqiyatlarga erishganini qayd etdi. “O‘zbekiston bugun kuchli va barqaror davlat o‘laroq o‘z iqtisodiy ravnaqi yo‘lida komil ishonch bilan odimlamoqda. U xalqaro maydonda mustahkam mavqe, munosib hurmat va e’tiborga ega ekanligi, mamlakatning xalqaro tashkilotlar doirasidagi muvaffaqiyatli faoliyati ham bundan dalolat beradi”, dedi Adilbek Qasimaliyev.

**Dushanbe**da O‘zbekiston Mustaqillik kuniga bag‘ishlangan bayram tadbirlari 1-sentabr kuni o‘tkazildi.

Unda Tojikiston Bosh vazirining o‘rinbosari Sulaymon Rizoi Ziyozoda, sanoat va yangi texnologiyalar vazirining birinchi o‘rinbosari Isojon Yatim Qurbonzoda, tashqi ishlar vazirining o‘rinbosari Sodiq Imomiy, madaniyat vazirining o‘rinbosari Manuchehr Sharifzoda, shuningdek, diplomatik vakolatxonalar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari, ekspertlar, yetakchi OAV bosh muharrirlari ishtirok etdi.

Tadbirda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tojikistonga tashrifi hamda mamlakatimiz tarixiy shaharlarining diqqatga sazovor joylariga bag‘ishlangan videofilmlar namoyish qilindi.

Mehmonlar O‘zbekistonning an’anaviy mehmondo‘stligini urg‘ulashdi. Ishtirokchilar O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi do‘stlik va birodarlik rishtalari yanada mustahkamlanib, rivojlanib boraveradi, degan yakdil fikrni bildirdi.

Mamlakatimizning **Yekaterinburg** shahridagi Bosh konsulxonasida O‘zbekiston davlat mustaqilligining 32 yilligiga bag‘ishlangan rasmiy qabul marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda so‘zga chiqqan Sverdlovsk va Chelyabinsk viloyatlari rahbarlari va Rossiya TIV vakili O‘zbekiston bilan munosabatlarning rivojiga hissa qo‘shayotgan loyihalar haqida ma’lumot berib, O‘zbekiston xalqini Mustaqillik bayrami bilan tabrikladi.

Bayram tadbiri taniqli estrada xonandalari tomonidan ijro qilingan kuy va qo‘shiqlar bilan davom etdi. O‘zbek va rus tillarida yangragan qo‘shiqlar tadbir ishtirokchilariga manzur bo‘ldi.

2-sentabr kuni mamlakatimizning **Bangkok** shahridagi Bosh konsulxonasida O‘zbekiston davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligi munosabati bilan Tailand, Laos va Kambodja hududida yashayotgan, mehnat qilayotgan, ta’lim olayotgan vatandoshlar va xorijiy fuqarolar ishtirokida bayram tadbiri o‘tkazildi.

Unda xorijdagi vatandoshlarimizning Vatanga sadoqat va mehrga yo‘g‘rilgan samarali mehnatlari orqali O‘zbekiston mustaqilligini yana-da mustahkamlashga, uning rivoji va taraqqiyoti yo‘lida o‘z hissasini qo‘shayotgani e’tirof etildi.

Tadbir ishtirokchilariga Prezident Shavkat Mirziyoyevning 31-avgust kuni “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida o‘tgan davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqining videoyozuvi ko‘rsatildi.

Mamlakatimiz diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari tomonidan Mustaqillik kuni munosabati bilan uyushtirilayotgan bayram tadbirlari davom etmoqda.

**“Dunyo” AA.**

Senator va hayot

## KAMCHILIKLARNI BARTARAF QILISH BO‘YICHA TEGISHLI TAVSIYALAR BERILDI

*Bugun mamlakatimiz hududlarida aholi turmush farovonligini ta’minlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘lida barcha sa’y-harakatlar safarbar etilgan. Bu borada belgilangan vazifalar ijrosi ustidan parlament nazoratini kuchaytirish, aholi bilan muntazam ravishda muloqot qilish, zarur holatlarda mahalliy davlat organlariga ko‘maklashish yuzasidan Oliy Majlis Senati a’zolari muntazam ravishda mahalliy Kengash deputatlari bilan hamkorlikda amaliy ishlarni olib borayotir.*

Xususan, Senatning Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasida doimiy asosda ishlovchi senator Gulnora Ma’rufova mahalliy Kengash deputatlari bilan birgalikda poytaxtimizning Yangihayot tumanida ijtimoiy soha obyektlarini o‘rgandi.

Jumladan, 2 va 285-umumta’lim maktablari, mahallalardagi infratuzilmalar, ichki yo‘llar, piyodalarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan ta’minlanganlik holatini ko‘zdan kechirdi.

O‘rganishlar davomida aniqlanishicha, 2-maktab 2,2 koeffitsiyentda, ya’ni ikki smenada faoliyat olib boradi. Sinfxonalar, shuningdek, to‘garaklar faoliyati uchun imkoniyatlar yetarli emas. Sport zali esa o‘quvchilar soniga nisbatan kichik.

Shu bilan birga, senator va deputatlar 285-umumta’lim maktabida ham bo‘lib, bu yerdagi shart-sharoitlar bilan tanishdi, o‘quvchi yoshlar bilan suhbatlashdi.

Maktablarda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan senator Gulnora Ma’rufova mahalliy davlat organlari mas’ullariga o‘zining tegishli tavsiyalarini berib, respublika miqyosida hal qilinadigan muammolar esa qo‘mita majlislarida ko‘rib chiqilishini qayd etdi.

Bundan tashqari, senator “Yangi gulzor” va “Yangi Choshtepa” mahalla fuqarolar yig‘inlari hududidagi turarjoylarga o‘rnatilgan “yashil” energiya manbalarining ishlash holati bilan tanishdi.

O‘rganishlar davomida mahallalardagi ijobiy o‘zgarishlar bilan birga, qator muammolarga ham e’tibor qaratildi.

Xususan, “Yangi Choshtepa” MFY aholisi uchun Toshkent halqa avtomobil yo‘liga chiqishda piyodalar uchun yer usti o‘tish yo‘lagi qurib bitkazilgani o‘quvchi yoshlar hamda bolali ayollar uchun ayni muddao bo‘lgani alohida e’tirof etildi.

Ammo “Yangi gulzor” MFYda ichimlik suvi va elektr ta’minoti, ichki yo‘llar, simyog‘ochlarni beton ustunlarga almashtirish, ko‘chalarni yoritish, oilaviy vrachlik punktlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq muammolar borligi ham aniqlanib, parlament nazoratiga olindi.

Senatorlarning mahalliy Kengash deputatlari bilan hamkorlikdagi bu kabi o‘rganishlari mamlakatimizning barcha hududida olib borilmoqda.

**“Xalq so‘zi”.**

## MULK DAXLSIZLIGI TA’MINLANSA, BIZNES RIVOJLANADI

*Mulk daxlsizligi har kimning o‘z boyliklariga egalik qilish, foydalanish va boshqarish huquqiga ega ekanidir. Bu huquq odamlarga o‘z mulkidan qanday foydalanishni erkin tanlash imkonini beradi va qonun oldida tenglikni yaratadi. Qolaversa, mulkdor o‘z mulki ishonchli himoya qilinishiga ishonsagina investitsiya kiritadi. Tadbirkor biznesini rivojlantirishga bor vujudi bilan harakatda bo‘ladi. Demak, ham mulkdor, ham davlat iqtisodiyoti rivojlanadi.*

Fikr

Yurtimizda so‘nggi yillarda tadbirkorlar huquqlari yana-da keng himoya qilinayotgani ham bejiz emas. Soha egalarining huquqiy himoyasi kuchaytirilayotgani, ko‘plab imtiyoz va yengilliklar berilayotgani ularni ruhlantiribgina qolmay, iqtisodiyotimizning rivoji, xalqimiz farovonligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yaratilayotgan qulay imkoniyatlar tufayli keyingi olti yilda tadbirkorlik subyektlari soni 6 barobar ko‘payib, bugungi kunda 2 millionga yetdi. Daromadi 1 million dollardan oshgan tadbirkorlar soni 26 ming nafarga, 220 nafar tadbirkorning daromadi esa 100 million dollarga yetdi.

Tan olish kerak, xususiy mulkni himoya qilish sohasidagi amalga oshirilgan islohotlar va ko‘rilayotgan choralarga qaramasdan, xususiy mulk daxlsizligi bilan bog‘liq muammo va nizolar mavjud edi. Xususan, davlat organi mansabdor shaxsning noqonuniy qarori asosida xususiy mulkni “snos” shaklida olib qo‘yishi, mulkdorga yetkazilgan zararni qoplamasligi, asossiz vajlar bilan ko‘chmas mol-mulkni buzish kabilar mulkdorlarning haqli e’tirozlariga sabab bo‘layotgandi.

Sud-huquq tizimidagi islohotlar, jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga hayotbaxsh normalarning joriy etilishi tufayli mulk huquqi kafolatlari, sudlarda ularning himoyasi va daxlsizligini ta’minlash mustahkamlandi. Jumladan, Konstitutsiyada ilk marotaba yer xususiy mulk bo‘lishi mumkinligi nazarda tutildi. Ushbu norma Asosiy Qonundagi haqiqiy inqilobiy yangiliklardan biri sifatida mulkchilik munosabatlaridagi bo‘shliqni to‘ldirdi.

Shu bilan birga, hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, mabodo, mahrum qilingan taqdirda mulkdorga uy-joyning hamda u ko‘rgan zararning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta’minlanishi belgilandi.

Bunda uy-joy mulkdorlariga nisbatan 2 turdagi muhim konstitutsiyaviy kafolat belgilandi: sud kafolati va uy-joydan mahrum etilganda kompensatsiya olish kafolati. Sud kafolati uy-joyga nisbatan mulk huquqidan sud qarorisiz mahrum etilishiga yo‘l qo‘yilmasligini anglatadi. Bunda sud tomonidan mulk huquqining bekor qilinishiga sabab bo‘luvchi holatlar amaldagi qonun hujjatlari asosida obyektiv tarzda ko‘rib chiqiladi. Albatta, mazkur tartib mulkdor har qanday holatda asossiz ravishda mulk huquqidan mahrum etilmasligini kafolatlaydi.

Ikkinchi kafolat, ya’ni uy-joydan mahrum qilinganda kompensatsiya olish kafolati mulkdorning iqtisodiy manfaatlari himoyasiga yo‘naltirilgani bilan e’tiborga molik. Mazkur norma qonunda belgilangan hollarda va tartibda uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorni shu uy-joy va yetkazilgan zarar uchun teng qiymatda kompensatsiya olishini kafolatlaydi.

Bundan tashqari, sud orqali xususiy mulk himoyasi va daxlsizligini ta’minlash maqsadida xususiy mulkka egalik qilish, foydalanish va uni tasarruf etish huquqini bevosita yoki bilvosita cheklashni nazarda tutuvchi, mulkiy munosabatlarda bozor iqtisodiyoti tamoyillarini amalda to‘liq qo‘llashga to‘siq bo‘luvchi tartiblar, talablar va cheklovlar bekor qilindi.

Xususan, yer uchastkalariga bo‘lgan huquqning vujudga kelishi uchun asos bo‘lgan hujjatlarni, shu jumladan, Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hujjatlarini ularning o‘zi yoki yuqori turuvchi organ va mansabdor shaxslar tomonidan, xususan, prokuror protesti asosida bekor qilish yo‘li bilan yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tugatish amaliyotiga chek qo‘yildi. Ushbu hujjatlar faqat sud tomonidan bekor qilinishi yoki haqiqiy emas, deb topilishi belgilandi.

Umuman olganda, Konstitutsiyada mulkdorlarning mulk daxlsizligi tamoyillarining mustahkamlangani ularning mol-mulkini o‘zboshimchalik bilan qonunga xilof ravishda tortib olish va ulardan foydalanish holatlaridan himoya etilishini ta’minlaydi. Bu mulkdorlarning o‘z mulkiga egalik qilishi va ulardan foydalanishi uchun zamin yaratib, davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Zero, mulkni muhofaza qilish tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb etishning zarur shartidir. Tadbirkorlar va investorlar o‘z mulklari qonun bilan himoyalanishiga ishonchi paydo bo‘lsagina dadil odimlaydi. Bu esa mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi.

**Adham SHODMONOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229.
Buyurtma G 941. 33 058 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi ma’sul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 23.20 Topshirildi — 01.35 1 2 3 4 5 6